

RAQAMLI AVLOD TILI: INTERNET VA YOSHLAR SO‘ZLASHUVI

Najibullo Sayfullayev

TerDPI o‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi o‘qituvchisi

Xusanova Durdona

TerDPI o‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi 4-bosqich talabasi

Annotatsiya: XXI asr — axborot va texnologiyalar asri hisoblanadi. Bugungi kunda internet, ijtimoiy tarmoqlar va raqamli vositalar inson hayotining ajralmas qismiga aylanib ulgurgan. Ayniqsa, yoshlar kundalik hayotida internet muloqotning asosiy maydoniga aylangan. Bu jarayon esa tilga, xususan, yoshlar so‘zlashuv uslubiga kuchli ta’sir ko‘rsatmoqda. Natijada jamiyatda “raqamli avlod tili” degan yangi tushuncha shakllandi. Ushbu maqolada internet muhitining yoshlar nutqiga ta’siri, uning o‘ziga xos xususiyatlari hamda ijobiy va salbiy jihatlari yoritiladi.

Аннотация: XXI век считается веком информации и технологий. Сегодня интернет, социальные сети и цифровые инструменты стали неотъемлемой частью жизни человека. Особенно для молодежи интернет стал основным пространством для общения в повседневной жизни. Этот процесс оказывает сильное влияние на язык, в частности, на стиль речи молодежи. В результате в обществе сформировалось новое понятие — «язык цифрового поколения». В данной статье освещается влияние интернет-среды на речь молодежи, её особенности, а также положительные и отрицательные стороны.

Annotation: The 21st century is considered the era of information and technology. Today, the internet, social networks, and digital tools have become an integral part of human life. Especially for young people, the internet has become the main platform for communication in daily life. This process strongly influences language, particularly the speech style of the youth. As a result, a new concept called "digital generation language" has emerged in society. This article highlights the impact of the internet environment on the speech of young people, its distinctive features, as well as its positive and negative aspects.

Kalit so‘zlar: raqamli avlod, sleng, jargon, xayp, kringj, instanew, yoshlar nutqi, salbiy jihatlari, zamonaviy texnologiyalar, internet, emoji, stiker,

Ключевые слова: цифровое поколение, сленг, жаргон, хайп, кринж, инстанью, молодежная речь, негативные стороны, современные технологии, интернет, эмодзи, стикер, ок.

Keywords: digital generation, slang, jargon, hype, cringe, instanew, youth speech, negative aspects, modern technologies, internet, emoji, sticker, ok

Raqamli avlod deb bolalikdan boshlab internet va ijtimoiy tarmoqlar bilan yashab kelayotgan yoshlar avlodiga aytiladi. Ular axborotni tez qabul qiladi, qisqa va lo'nda muloqotni afzal ko'radi. Raqamli avlod vakillari uchun yozishma, ovozli xabar, emoji va stikerlar odatiy muloqot vositasiga aylangan. Internet muhitida shakllangan nutq an'anaviy og'zaki va yozma nutqdan farq qiladi. U tezkorlik, soddalik va emotsionallik bilan ajralib turadi. Yoshlar ko'pincha rasmiy qoidalarga emas, balki qulaylik va tez tushunishga urg'u beradilar. Ijtimoiy tarmoqlar yoshlar nutqida bir qator yangi til hodisalarini yuzaga keltirdi. Avvalo, qisqartmalarning ko'pligi bunga misol bo'la oladi. Masalan, "ok"(ma'qullash, ba'zi hollarda hafa bo'lganlik belgisi), "kk"(kerak), "un"(uchun) kabi so'zlar yozishmalarda tez-tez uchraydi. Bu holat muloqotni tezlashtirsa-da, ba'zan to'liq va ravon fikr bildirishga to'sqinlik qiladi. Ikkinchi muhim jihat — chet tillar ta'siri. Ingliz va rus tillaridan kirib kelgan "trend", "like", "story", "comment", "deadline", "instanew", "pyar", "respect", "radparty" kabi so'zlar yoshlar nutqida keng qo'llanmoqda. Ko'pincha bu so'zlar o'zbekcha muqobiliga ega bo'lsa-da, xorijiy shaklda ishlatilmoqda.

Yana bir xususiyat — emoji va stikerlarning faol ishlatilishi. Ba'zan yoshlar butun fikrini bitta emoji orqali ifodalaydi. Bu holat yozma nutqda hissiyotni kuchaytirsa-da, so'z boyligining cheklanishiga olib kelishi mumkin.

Internet muhiti yoshlar orasida sleng va jargonlarning tez tarqalishiga sabab bo'ldi. "Top", "xayp", "krinj", "zachet" kabi so'zlar kundalik nutqqa singib ketgan. Bu so'zlar ko'pincha norasmiy muloqotda qo'llaniladi va yoshlar orasida o'ziga xoslikni ifodalaydi. Sleng so'zlar yoshlar nutqini jonli va qiziqarli qilsa-da, ularni nutqda ishlatish adabiy til me'yorlariga zid hisoblanadi. Shu sababli yoshlar tilning qaysi vaziyatda qanday qo'llanishini farqlay olishi muhimdir. Internet tilining ijobiy tomonlari ham mavjud. Avvalo, u muloqotni tez va qulay qiladi. Masofadan turib aloqa qilish imkoniyatini beradi. Yoshlar o'z fikrini erkin ifodalaydi, ijodkorlik namoyon etadi, yangi so'z va iboralar yaratadi. Bundan tashqari, internet tili tilning rivojlanish jarayonini tezlashtiradi. Til doimo o'zgarib turuvchi tirik hodisa bo'lib, raqamli muhit bu jarayonga yangi turtki beradi. Internet tilining salbiy oqibatlari ham mavjud. Eng asosiy muammo — adabiy til me'yorlarining buzilishi. Ba'zi yoshlar rasmiy hujjat, insho yoki ilmiy ish yozishda ham internet tiliga xos qisqartmalar va slenglardan foydalanib yuboradilar. Yana bir muammo — imlo va grammatik xatolarning ko'payishi. Tez yozish odati savodsizlikka olib kelishi mumkin. Bu esa til madaniyatining pasayishiga sabab bo'ladi. Bugungi kunda eng muhim masala — adabiy til bilan internet tili o'rtasida muvozanatni saqlash. Internet tilini butunlay rad etish mumkin emas, chunki u zamon talabi hisoblanadi. Ammo uni o'rinli va vaziyatga mos tarzda qo'llash zarur. Ta'lim muassasalarida o'quvchilarga til madaniyati, rasmiy va norasmiy nutq farqli ravishda tushuntirilishi lozim. O'qituvchi hamda ota-onalar bu borada farzandlariga namuna bo'lishlari kerak.

Xulosa: Xulosa qilib aytganda, raqamli avlod tili — internet va zamonaviy texnologiyalar ta'sirida yuzaga kelgan tabiiy hodisadir. U yoshlar nutqini yangilaydi, boyitadi va tezkor muloqotga xizmat qiladi. Shu bilan birga, adabiy til me'yorlarini saqlash, rasmiy va norasmiy nutqni farqlash muhim ahamiyat kasb etadi. Raqamli avlod vakillari tilga mas'uliyat bilan yondashgan holda, uni madaniyatli va ongli tarzda qo'llashlari lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.<https://yuz.uz/uz/news/raqamli-avlod-qizlari-iqtidorlilar-hamjamiyati-raqamli-konikmalar-va-goyalar-maydoni>
- 2.Zenodo <https://share.google/tCaKiEwd06YsNuo4E>
- 3.<https://zenodo.org/records/17181928>